




**SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023-yil yanvar oyida

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.


Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi ma'lum vaqt davomida iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti sifatida chiqqanda va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda, xizmatlar bozor uchun mo'ljallanib ishlab chiqarilgan hisoblanadi.

Samarqand viloyatining iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lamini, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 892,2** mlrd. so'mga yetdi. 2022-yilning yanvar oyiga (**114,3 %**) nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023-yil yanvar oyida)

	Hajm, mlrd. so'mda	Ulushi, %	O'sish sur'ati, %
Samarqand viloyati	1 892,2	100,0	102,4
Samarqand sh.	809,6	42,8	102,3
Kattaqo'rg'on sh.	43,3	2,3	103,2
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	63,5	3,3	101,4
Bulung'ur	49,8	2,6	102,5
Jomboy	81,6	4,3	102,7
Ishtixon	67,4	3,6	103,0
Kattaqo'rg'on	73,2	3,9	101,0
Qo'shrabot	37,1	2,0	102,0
Narpay	61,7	3,2	101,1
Payariq	66,5	3,5	102,2
Pastdarg'om	118,8	6,3	102,9
Paxtachi	41,3	2,2	101,6
Samarqand	127,0	6,7	103,6
Nurobod	39,6	2,1	101,8
Urgut	129,0	6,8	103,3
Toyloq	82,8	4,4	103,1

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi (2023-yil yanvar oyida)

X
I
Z
M
A
T
L
A
R

S
O
H
A
S
I



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari eng katta ulushni egallaydi. 2023-yil yanvar oyida savdo xizmatlarining ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, transport (**22,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**18,3 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,4 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda (**4,8 %**) yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmining o'sishi qayd etildi, ushbu xizmat turining ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, %
	2022-y.	2023-y.	
Xizmatlar – jami	1 660,9	1 892,2	102,4
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,6	102,1	126,0
Moliyaviy xizmatlar	302,9	346,4	108,5
Transport xizmatlari	397,5	424,6	93,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	370,7	408,9	98,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	62,6	74,6	94,0
Savdo xizmatlari	460,8	520,0	99,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	41,7	44,7	100,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	54,5	91,4	162,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	29,5	35,2	107,4
Ijara xizmatlari	46,9	51,4	102,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	49,3	57,1	100,4
Shaxsiy xizmatlar	73,5	87,8	101,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	23,1	16,2	65,2
Boshqa xizmatlar	41,0	40,7	92,0

Savdo xizmatlari


Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2023-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi **520,0** mlrd. so'mga yetdi.


O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Savdo xizmatlarining tarkibi



Transport xizmatlari





Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023-yilning yanvar oyida transport xizmatlari hajmi **424,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **93,6** % ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi ustunlik qilmoqda (**96,3** %). Yordamchi transport faoliyati eng kichik ulushni egallaydi (**3,7** %).


Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yoʻlda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yoʻlovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish boʻyicha xizmatlar va koʻchish boʻyicha xizmatlari kiradi.

2023-yilning yanvar oyida avtomobil transportida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi **408,9** mlrd. soʻmga yetdi.

2022-yilning yanvar oyiga nisbatan ushbu xizmatlarning oʻsish surʼati **98,1** % ga yetdi. Koʻrsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **21,6** % ni tashkil etdi.

Tashish turlari boʻyicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi



Avtotransport xizmatlarining umumiy hajmida yoʻlovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi.


2023-yil yanvar oyida ularning ulushi **71,4** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022-yil ushbu koʻrsatkich **71,2** % ni tashkil etgan.


Moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **43,5** mlrd. soʻmga oshdi va **346,4** mlrd. soʻmga yetdi. Jami koʻrsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **18,3 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning oʻsish surʻati **108,5 %** ni tashkil etdi.


Oʻsish surʻati



Xizmatlar hajmi (mlrd. soʻmda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023-yil yanvar oyida)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sugʻurta va nafaqa taʼminoti boʻyicha xizmatlardan tashqari (pul mablagʻlarini olish va qayta taqsimlash boʻyicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2023-yil yanvar oyida ularning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.


2023-yilning yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **102,1** mlrd. so'm darajasida qayd etildi va 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **126,0** % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023-yil yanvar oyida)

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga to'g'ri keldi (**94,0** %).

Taqqoslash

uchun: 2022-yilning yanvar oyida bu ko'rsatkich **93,9** % ni tashkil etgan.



- Axborot xizmatlari
- Boshqa xizmatlar
- Kompyuterda dasturlashtirish bo'yicha xizmatlar
- Telekommunikatsiya xizmatlari


Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.



2023-yilning yanvar oyida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **35,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **1,9** % ni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **107,4** % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2022-yilning yanvar oyida ushbu xizmatlar hajmi **29,5** mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining **1,8** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar


Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)




Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2023-yilning yanvar oyida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **44,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,4** % ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **100,3** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati

Xizmatlar hajmi (mlrd. so'mda)




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari


Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.

2023-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **464,4** ming so'mga yetdi. 2022-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'ati **100,3** % ni tashkil etgan.

O'sish sur'ati



Xizmatlar hajmi (ming so'mda)



Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
Tel.: (66) 235-79-35